



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MODDIY BOYLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich -
Toshkent moliya instituti prorektori,
mustaqil izlanuvchi, i.f.n., dotsent

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a46

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobida moddiy boyliklar hisobini yuritishni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, maqolada mazkur mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda mavzuga oid adabiyotlar tahlili, mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tahlillar va ularning natijalari aks ettirilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta'lim muassasalarida moddiy boyliklar hisobining asosiy vazifalari, oliy ta'lim muassasalarida asosiy vositalar va qurilishi tugallanmagan binolarning (inshootlarning) sotilishi tartibi va sotishdan tushgan mablag'larning sarflanish yo'nalishlari hamda muassasalarda moddiy boyliklar hisobini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, byudjet tashkilotlari, tovar-moddiy boyliklar, qoldiq qiymat, bino va inshootlar, asosiy vositalar, dastlabki qiymat, eskirish qiymati, tugatish qiymati, eskirish summasi, inventarizatsiya, tugallanmagan qurilish, byudjet hisobi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА МАТЕРИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВУЗАХ

Синдаров Шерзод Эгамбердиевич -
проректор Ташкентского финансового института,
самостоятельный исследователь, к.э.н., доцент

Аннотация. Статья посвящена вопросам совершенствования учета материальных ценностей в бухгалтерском учете высших учебных заведений Узбекистана, в статье отражены исследования и анализ литературы по данной теме, проведенные анализы по совершенствованию этого процесса и их результаты.

Также в статье рассмотрены основные задачи учета материальных активов в высших учебных заведениях, порядок реализации основных средств и незавершенных зданий (сооружений) в высших учебных заведениях, направления расходования средств, вырученных от реализации, и сформулированы рекомендации по совершенствованию учета материальных ценностей в учреждениях.

Ключевые слова: Высшие учебные заведения (ВУЗы), бюджетные организации, товарно-материальные запасы, остаточная стоимость, здания и сооружения, основные средства, первоначальная стоимость, величина амортизации, ликвидационная стоимость, сумма амортизации, товарно-материальные запасы, незавершенное строительство, бюджетный учет.

IMPROVING ACCOUNTING OF MATERIAL VALUES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich -
Vice-Rector of the Tashkent Financial Institute,
Independent Researcher, Candidate of
Economics, Associate Professor

Abstract. The article is devoted to the issues of improving the accounting of tangible assets in the accounting of higher education institutions of Uzbekistan, the article reflects the researches carried out on this topic and the analysis of the literature on the topic, the analyzes conducted on the improvement of this process and their results. Also, in the article, the main tasks of the accounting of material values in higher education institutions, the procedure for the sale of fixed assets and unfinished buildings (structures) in higher education institutions, and directions for spending the proceeds from the sale, as well as recommendations for improving the accounting of material values in institutions are formulated.

Key words. Higher education institutions, budget organizations, inventory, residual value, buildings and structures, fixed assets, initial value, depreciation value, closing value, depreciation amount, inventory, unfinished construction, budget accounting

Kirish. Ma'lumki, 2017-yilning 1-sentabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining quyi muassasalarida buxgalteriya xizmatlari tugatilib, moliya-buxgalteriya xizmatlari tashkil qilindi. Ta'lim muassasasini byudjetdan moliyalashtirishning me'yoriy negizi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarori kabi qonunchilik

hujjatlaridan iborat. Bular ta'lim muassasasi ichki moliyaviy oqimini tartibga soladi hamda xarajatlar me'yori va rahbarlar huquqini belgilaydi. Ta'lim muassasasining rahbarlari belgilangan qoidalar doirasida tartibga soluvchi buyruqlar va farmoyishlar berish huquqiga egadirlar.

Ta'kidlash joizki, o'tkazilgan tahlillar natijasida oliy ta'lim muassasalarida ko'zga tashlanayotgan ayrim muammolar ularning moliya-xo'jalik yo'nali-

shidagi kamchiliklari hisobiga yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Iqtisodiy vaziyatning murakkablashuvi va ta'lim muassasasida moliyaviy mustaqillikning oshishi amalda barcha bo'linma rahbarlarining moliya sohasiga jalb etilishini talab qiladi. Mablag'larni jalb etish, boshqarish va tejash har bir fakultet dekani, kafedra mudiri, bo'lim, boshqarma rahbarining vazifasiga aylandi. Ilgari faqat rahbar hamda buxgalterning tashvishi bo'lgan vazifa endilikda ta'lim muassasasi butun jamoasini o'ziga jalb etadi. Bo'linmalarining rahbarlari o'z qarorlarini moliyaviy boshqaruv orqali amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar. Ta'lim muassasasining byudjeti rektor va tegishli vakolat berilgan bo'linmalarining rahbarlari faoliyati orqali sarflanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi obyektlariga nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlar, kreditorlar, moliyaviy natijalar kiradi va ularning har biri hisobda alohida tartibda yuritiladi. Ta'kidlash joizki, tadqiqot mavzusi ham byudjet hisobi obyektlaridan biri sifatida bugungi kunda kam o'rganilgan va o'rganilishi zarurat bo'lgan mavzuga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrda "Ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2019-yil 14-yanvardagi 3120-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli byudjet hisobining 7-sonli standarti va "Ta'lim muassasalarining hamda davlat maqsadli jamg'armalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini tartibga solish byudjet hisobi standartlari" hamda boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi [1].

Bu borada xorijiy iqtisodchi olimlardan M.A.Ryabova byudjet muassasalari moliyaviy jaryonlari to'g'risida fikr yuritib, uning ta'kidlashicha, "Byudjet muassasalari davlatning yuqori turuvchi hamda mahalliy moliya organlari tomonidan ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy va boshqa funksiyalarni bajarishda notijorat xarakterga ega muassasalaridir. Ushbu byudjet muassasalari faoliyati davlat byudjetidan hamda davlatning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan daromadlar va xarajatlar smetalari asosida moliyalashtiriladigan (maktablar, oliy va o'rta ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat va hokazo) muassasalaridir" [2].

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan A.S.Bakaybayeva, K.Sh.Ibragimov, S.U.Mehmonov va M.Ostonaqulov hamda Sh.V.G'aniyevning dissertatsiya va monografiyalarida byudjet tashkilotlarining moddiy boyliklari hisobi va hisoboti ilmiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratildi [3]. Ta'kidlash joizki, yuqorida-

gi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan byudjet tashkilotlarining moddiy boyliklari hisobi va moliyaviy nazoratining metodologik muammolarini o'rganishga keng e'tibor qaratilmagan hamda amaldagi me'yoriy hujjatlarning byudjet tizimini isloh qilish sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Iqtisodchi olim M.X.Saidov o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimi daromad va xarajatlar smetasining bajarilishi xususida so'z yuritib: "Oliy ta'lim muassasasining xarajatlar smetasi uning faoliyatini ta'minlash uchun byudjetdan beriladigan mablag'ning umumiy miqdori, maqsadli yo'nalishi va oylar bo'yicha taqsimlanishi belgilanishini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan namunaviy shaklda tuziladi" [7], – deya ta'kidlab o'tgan.

Iqtisodchi olim E.T.Odilov davlat xarajatlari to'g'risida fikr yuritib: "Davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini, turmush darajasini ko'tarishga mo'ljallangan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga qaratilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Bular umumdavlat xarajatlari hisoblanib, davlat byudjeti orqali moliyalashtiriladi" [8], – deb fikr bildirgan.

Yana bir olim K.Sh.Ibragimov ilmiy qarashlarida: "Mamlakatimiz moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar byudjet tashkilotlarida, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lar manbalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Respublikamizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda ta'lim tizimini moliyaviy sog'lomlashtirishning strategik yo'nalishi, byudjetdan ajratiladigan mablag'larni asosli ravishda qisqartirib borish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni keng jalb etish bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan hisoblanadi" [4], – deb o'z fikrlarini bayon etgan.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan byudjet tashkilotlarining moddiy boyliklari hisobi va moliyaviy nazoratining metodologik muammolarini o'rganishga keng e'tibor qaratilmagan hamda amaldagi me'yoriy hujjatlarning byudjet tizimini isloh qilish sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida iqtisodiy voqelik jaryonlarini o'rganishning ilmiy usullari – umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistika, ishtiqbolli prognozlash va guruhlash kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston byudjet tash-

kilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Moliya vazirligining bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Shu bilan birga, qonunchilikka muvofiq byudjetdan tashqari daromadlar aniq manbalari bo'yicha shakllantiriladi va sarflanishi yo'nalishlari belgilanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "byudjet tashkilotlari rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari belgilangan. Shuningdek, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, birinchi navbatda, kreditorlik majburiyatlarini tugatishga yo'naltirilishi, agar kreditorlik qarzdorlik mavjud bo'lmasa, kamida 75 foizi moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, ko'pi bilan 25 foizgacha xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi belgilangan"[10].

Buxgalteriya hisobini yuritishda yuqorida keltirib o'tilgan qonunchilik bilan belgilangan me'yorlarga qat'iy amal qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasida buxgalteriya hisobining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibda, to'g'ri, to'liq va o'z muddatida yuritilishi buxgalteriya hisobi xizmati rahbari mas'ulligida amalga oshiriladi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari amaliyotida bugungi kunda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 5-moddasiga muvofiq "UzASBO"- ta'lim muassasalarida avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi dasturiy ta'minoti asosida "elektron raqamli imzo" bilan tasdiqlangan holda yuritilmoqda. "UzASBO" – dasturi ta'lim muassasalarining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun mo'ljallangan dastur bo'lib, barcha operatsiyalar, ko'rsatkichlar va me'yorlar, shu jumladan, mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan o'z vaqtida kiritish asosida buxgalteriya amallari amalga oshirilib kelinmoqda.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida moddiy boyliklar hisobining asosiy vazifalari

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan, 2022y.

Asosiy vosita obyektlarida amalga oshirilgan qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya yoki modernizatsiya natijasida dastlabki qabul qilingan me'yoriy ko'rsatkichlari yaxshilanishi (oshirilishi) hollarida tashkilotlar shu obyektning amalga oshirilgan qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya yoki modernizatsiya ishlari tugatilgan oydan keyingi hisobot oyining birinchi sanasidan boshlab shu obyektning samarali foydalanish muddatini qayta ko'rib chiqadi. Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash har yili (joriy yilning 1-fevraligacha) 1-yanvar holati bo'yicha qayta baholashni o'tkazish davrida narxlar darajasidan kelib chiqib o'tkaziladi. Asosiy vositalarni qayta baholashda 2 ta usuldan foydalanish mumkin. Ya'ni indekslash va bevosita usulda baholanadi.

Oliy ta'lim muassasalari tasarrufida qoldiriladigan muassasa tomonidan faoliyat ixtisosligiga muvofiq moddiy-texnik bazani mustahkamlashga (shu jumladan, avtomototransport vositalarini sotib olishga), shuningdek, kreditorlik qarzni (mavjud bo'lganda) to'lashga yo'naltiriladi. Asosiy vositalarni beg'araz berish yuqori tashkilot bilan kelishilgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Buxgalteriya bo'limi o'z ustav (nizom)iga ega bo'lib, bo'lim zimmasiga muassasa buxgalteriya hisobining eng muhim obyektlari, jumladan, muassasa moddiy boyliklari hisobi yuzasidan quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan (1-rasm). Hozirgi sharoitda ta'lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanishining manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlarini ta'minlash ajratiladigan turli darajadagi byudjet mablag'lari, ya'ni byudjetdan ajratmalar va ta'sischi (davlat) pul badallari; - grant mablag'lari;
- ta'lim uchun to'lovlar;
- banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari kredit mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriya mablag'lari va maqsadli badallari.

O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalari qo'shimcha daromadlari quyidagi manbalari hisobidan shakllanishi mumkin:

- ta'lim muassasasi sohasi bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish va sotish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish);
- ta'lim muassasalarining boshqa tashkilotlarga vaqtincha foydalanilmayotgan xonalarni va boshqa davlat mulkini ijaraga berishi;
- yuridik va jismoniy shaxslar ta'lim muassasiga ko'rsatadigan homiylik (beg'araz) yordami. "Oliy ta'lim iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlarni milliy darajada ishlab chiqarishning alohida qismi bo'lib, uning amal qilishi faoliyatning mazkur sohasidagi moliyaviy, moddiy va mehnat munosabatlarining o'ziga xos tashkil etilishiga asoslanadi" [9].


Oliy ta'lim muassasalarida asosiy vositalar-

ning buxgalteriya hisobi asosiy vositalarning kelib tushishi, ularning tashkilot ichida joydan-joyga o'tishi (ko'chishi), tashkilot hisobidan chiqarilishi (jumladan, yaroqsiz holga kelganligi sababli), shuningdek, har bir obyektning (predmetning, komplektning) saqlanishi va to'g'ri foydalanishi ustidan nazorat qilinishini hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirilishini hamda hisob registrilarida o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlashi kerak. Sotib olingan asosiy vositalar, tugallangan qurilishlar va inshootlar, shuningdek, tashkilotning o'zida tayyorlangan asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga ularning sotib olish narxi va ularga qilingan barcha xarajatlarning to'liq summasida, jumladan, mazkur asosiy vositalarni foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda kiritiladi. Sotib olingan asosiy vositalarning dastlabki qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holdagi dastlabki qiymatidan belgilangan tartibda aniqlangan eskirish summasining farqi sifatida aniqlanadi. Asosiy vositalarni hujjatlashtirish ketma-ketligi UzASBO axborot tizimida bajariladi. Oliy ta'lim muassasalari asosiy vositalarining eskirishi qonunchilikka muvofiq byudjet tashkilotlar asosiy vositalarining yillik eskirish me'yorlaridan kelib chiqqan holda har yili aniqlanadi va har oyda shu tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladi (2-rasm).

Oliy ta'lim muassasalarida materiallar bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlar aniqlangan me'yorlar asosida tahlil qilinadi. Agar byudjet tashkilotini moliya yili oxirida bo'lgan materiallar bo'yicha qoldiq qiymati belgilangan me'yor(limit)dan ortiqcha bo'lsa, keyingi moliya yilida byudjet mablag'lari bo'yicha xarajat smetasida materiallar sotib olish uchun kiritilgan summa me'yordan ortiq sumмага kamaytiriladi. Tovar-moddiy boyliklar belgilangan me'yorini aniqlash uchun ko'rsatkichlar quyidagicha (1-jadval) hisoblanadi.

Materiallar bo'yicha yil oxiridagi qoldiq me'yorlarini aniqlash uchun "Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida" hisobotning 060-069 subschyotlar bo'yicha yil davomida tashkilot ehtiyojlari uchun sarflangan materiallar qiymati olinib yoqilg'i va moylash materiallari bo'yicha isitish mavsumidagi kunlar soni (asosan, 5 oylik isitish mavsumi - 150 kun olinadi), tibbiyot muassasalari bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining har bir guruhi bo'yicha ko'rsatilgan summa 360 ga, boshqa oliy ta'lim muassasalari bo'yicha tashkilot ehtiyojlari uchun sarflangan materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari har bir guruhi bo'yicha 305 ga bo'linadi va chiqqan natija materiallar bo'yicha belgilangan kun me'yorlariga ko'paytiriladi.



2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida asosiy vositalar va qurilishi tugallanmagan binolarning (inshootlarning) sotilishi tartibi va sotishdan tushgan mablag'larning sarflanish yo'nalishlari

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan, 2022-y.

**Tovar-moddiy boyliklar belgilangan me'yorini aniqlash
uchun belgilangan ko'rsatkichlar**

T/r	Tovar –moddiy zaxiralari nomi	Belgilangan kun me'yorlari
1.	Oziq-ovqat mahsulotlari (mavsumiy tayyorlashdan tashqari)	15 kun
2.	Mavsumda tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari	150 kun
3.	Dori-darmonlar, reaktivlar, bog'lash materiallari va dorixona anjomlari	60 kun
4.	Barcha oliy ta'lim muassasalari uchun yoqilg'i (bolalar va davolash tashkilotlaridan tashqari)	75 kun
5.	Bolalar va davolash tashkilotlari uchun yoqilg'i	90 kun
6.	Xo'jalik va kanselyariya materiallari	45 kun
7.	O'quv ilmiy va boshqa maxsus maqsadlar uchun materiallar	120 kun
8.	Ozuqa va yem-xashak	120 kun
9.	Qurilish ta'mirlash materiallari	45 kun

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan, 2022-y.

Chiqqan natija me'yor hisoblanib, balansning 060-069 subschyotlari qoldig'i bilan solishtiriladi. Agar materiallar qoldig'i chiqqan me'yordan ortiq bo'lsa, o'sha summaga keyingi yil xarajatlar smetasida materiallar xarajat moddasi summasini moliyalashtirish qaytariladi.

Materiallar bo'yicha yil oxiridagi qoldiq me'yorlarini aniqlash uchun "Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida" hisobotning 060-069 subschyotlar bo'yicha yil davomida tashkilot ehtiyojlari uchun sarflangan materiallar qiymati olinib yoqilg'i va moylash materiallari bo'yicha isitish mavsumidagi kunlar soni (asosan, 5 oylik isitish mavsumi – 150 kun olinadi), tibbiyot muassasalari bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining har bir guruhi bo'yicha ko'rsatilgan summa 360 ga, boshqa oliy ta'lim muassasalari bo'yicha tashkilot ehtiyojlari uchun sarflangan materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari har bir guruhi bo'yicha 305 ga bo'linadi va chiqqan natija materiallar bo'yicha belgilangan kun me'yorlariga ko'paytiriladi. Chiqqan natija me'yor hisoblanib, balansning 060-069 subschyotlari qoldig'i bilan solishtiriladi. Agar materiallar qoldig'i chiqqan me'yordan ortiq bo'lsa, o'sha summaga keyingi yil xarajatlar smetasida materiallar xarajat moddasi summasini moliyalashtirish qaytariladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tovar-moddiy zaxiralar quyidagilar ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;

b) boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;

d) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallan-

magan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

e) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish davrining pirovard natijasi – sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

f) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va shu kabilar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritishdagi muammolardan biri asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni aniq ajratish imkonlarining cheklanganligidir. Agar tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha qo'shimcha subschyotlar qo'shib ular kengaytirilsa, asosiy vositalar bilan tovar-moddiy boyliklarning aniq ajratilishi imkonini kengaytirgan va byudjet tashkilotlari tomonidan mazkur aktivlar hisobini yuritishda qulayliklar yaratib bergan bo'lar edi.

O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalarining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hajmini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish. Bunda mutaxassislik kafedralari kesimida xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, kadrlar iste'molchilari bilan yuqori darajada integratsiyani yo'lga qo'yish asosida homiylik mablag'larini jalb etishni kuchaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ta'lim muas-

sasasi hisob ma'lumotlarining taqqoslanishini, shuningdek, moliya yili davomida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishning amaliy jihatdan nomaqbul ekanligini ta'minlash maqsadida hisob siyosatining o'zgartirish va qo'shimchalari moliya yili boshidan boshlab joriy etilishi kerak. Xususan, bu yillik moliya hisobotida operatsiyalarning ayni bir turiga turli hisob siyosatini qo'llash bilan bog'liq, bu esa uning to'g'ri izohlanishini murakkablashtiradi yoki uning to'g'ri izohlanishiga imkon bermasligi ham mumkin. Bu o'z navbatida, moliya hisobotining maqsadlariga ziddir. Yangi muassasani tashkil etishda yoki qayta tashkil etishda hisob siyosatiga muassasa tashkil etilgandan yoki qayta tashkil etilgan sanadan boshlab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kerak.

Muassasa moliyaviy hisobotiga ilova qilingan tushuntirish xatida muassasa kelgusi hisobot yilida o'zining hisob siyosatidagi o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida hamda imkon bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobotning o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan har bir qatordagi modda uchun to'g'rilash

summasini e'lon qiladi. Har bir oliy ta'lim muassasasi bosh hisobchisi 1-sonli byudjet hisobi standartida belgilangan shakl va mazmundagi "Hisob siyosati to'g'risida"gi buyruqni hisobot davri boshida tayyorlab, muassasa rahbariga tasdiqlatgan holda hisobot davri mobaynida mazkur buyruq asosida buxgalteriya ishlarini tashkil etishi hamda unga muvofiq hisob yuritilishini tavsiya etamiz.

Fikrimizcha, ta'lim muassasalarida tovar-moddiy boyliklarning maqsadli sarflanishi va to'g'ri saqlanishi uchun inventarizatsiya komissiyasi tomonidan amaldagi me'yoriy hujjatlar talabarlari asosida inventarizatsiya o'tkazishni to'g'ri tashkil etish hamda o'tkazish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, O'zbekiston ta'lim sohasidagi byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgarishlar kiritilishini taqozo etadi. Bu esa davlatning ijtimoiy soha – ta'lim sektoriga bo'lgan xarajatlarini optimallashtirishga olib keladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. 9-modda. <https://lex.uz>.
2. Рябова М.А. и друг. Бюджетный учет и отчетность. Учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2010. С. 35. (184 с.)
3. Bakaybayeva A.S. O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2020. – 52 b.
4. Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b.
5. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: Iqtisod moliya, 2016.
6. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. InfoCOM.Uz MChJ. – T., 2010. 36-b. (192 b.)
7. Saidov M.X. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash. – T.: Moliya, 2002-yil. – 134 b.
8. Odilov E.T. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: O'z R BMA, 2012. 11-b.
9. Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. 411-bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli "Byudjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz>



ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Саидов Шоҳруҳ-Мирзо Одилжон ўғли -
Қўқон университети докторанти

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a47

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасининг олий таълим тизимини рақамлаштириш шароитида мамлакатимиз ОТМларида ижтимоий тадбиркорликни ривожлантиришдаги омиллар ҳамда институционал ва иқтисодий тизимнинг бир қисми сифатида ОТМ салоҳиятининг таркибий қисмлари ҳақида тўхталиб ўтилган. Шунингдек, хориж тажрибалари ва олимлари фикрлари келтириб ўтилган. Сўнгра мамлакатимиз олий таълим муассасасининг тадбиркорлик салоҳияти элементлари тўплами ва модели манбаларининг турлари ифодаланган.

Калит сўзлар: рақамлаштириш, ижтимоий тадбиркорлик, олий таълим муассасалари, университет тадбиркорлик салоҳияти, баҳолаш механизми.